

**ABDURAUF FITRATNING “OILA YOKI OILA BOSHQARISH
TARTIBLARI” ASARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI.**

Xamroyeva Shaxrizoda Shavkat qizi

*Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti
Jurnalistika ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi
Tel : (93) 051-93-41 e-mail: shaxrizodaaa2700@icloud.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning oila boshqarishda ota-onaning o’rni, nikoh, to’y, turmush masalalari, qizlarning ilm olishlari, farzand tarbiyasi, maktab xususida yuritgan fikrlarining bugungi kungacha o’z ahamiyatini yo’qotmay kelayotgani hamda zamonamizda bu mavzudagi qarashlar qandayligi muhokama etiladi.

Abstract. In this article, Abdurauf Fitrat's thoughts on the role of parents in family management, marriage, wedding, family issues, girls' education, child education, schooling are not losing their importance until today, and what are the views on this topic in our time.

Аннотация. В данной статье до сих пор не теряют своего значения мысли Абдурауфа Фитрата о роли родителей в управлении семьей, браке, свадьбе, семейных вопросах, образовании девочек, образовании детей, школьном обучении, а также каковы взгляды на эту тему в наше время.

Kalit so’zlar. Abdurauf Fitrat, oila, nikoh, turmush, tarbiya, qizlar, maktab, ta’lim, diniy ta’lim, ota- ona.

Key words. Abdurauf Fitrat, family, marriage, education, girls, school, education, religious education, parents.

Ключевые слова. Абдурауф Фитрат, семья, брак, замужество, образование, девочки, школа, образование, религиозное воспитание, родители.

Buxoro farzandi Abdurauf Fitrat o’zining adabiyotga oid asarlarida milliy va umumbashariy qadriyatlarni uyg’unlashtirishga intilgan. U adabiyotni xalqning ma’naviy taraqqiyotida muhim omil deb bilgan va unga faqat badiiy ijod sifatida emas, balki millatni uyg’otish vositasi sifatida qaragan. Bugun tahliliga kirishadiganimiz ham “ Oila yoki oila boshqarish tartiblari “ asari oradan asr hisobidagi vaqt o’tgan bo’lsa-da, hali o’z dolzarbligi va ahamiyatini yo’qotgan emas. «Nabiy (s.a.v.) dedilar: «Xudo haqqi men sizlardan ham ko’proq parhezkor va Xudodan qo’rqadigan odamman, lekin ro’za tutaman, iftor qilaman, namoz o’qiyman, uxlayman va uylanaman. Kim bu sunnatdan yuz o’girsas, u mening ummatim emas». [1]Asarning birinchi uylanish xususidagi bobida shu fikrlar uchraydi chindan ham, oila muqaddas, muqaddas islom dinimizda ham zurriyod niyatida, o’z naslini

davom ettirish maqsadida ayol va erkaklarga oila qurish buyuriladi. Ammo oramizda shundaylar borki, oila mas’uliyati, undagi qiyinchiliklardan qo’rqib, tarkidunyo yo’lini tanlab yashayveradi. Bularga faqatgina o’zini o’ylaydiganlar sifatida qaraladi. Ayol va erkak juftligidan bunyod bo’lgan oila mehr, tarbiya, ilm maskani bo’lmog’i lozim. Abdulla Avloniy o’zining mashhur "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida shunday deydi: "Tarbiyani kimlar qilur? qayerda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga birinchi uy tarbiyasi, bu ona vazifasidir, ikkinchi maktab tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir". [2] Haqiqatdan ham, millat tarbiyasiga birinchi navbatda onalar mas’uldirlar. Bir oila mukammal bo’lmog’i, farzandlar unda o’ynab-kulib kamol topmog’i uchun ham otaning, ham onaning o’rni alohida muhim. Bugungi ahvolimiz va qarashlarimiz haqida gapirganda bu bo’limning ahamiyati yaqqol ko’zga tashlanadi, ya’ni, dunyo bo’ylab LGBT(bir jinsli nikohni targ’ib etuvchilar) shaxslarining ulushi taxminan 2% dan 15% gacha deb baholanadi.[3]Bu yerda na otaning, na onaning roli hamda vazifalarini talab etib, kuzatib bo’lmasligi, dvomchi nasllarning dunyoga kelmasligi ma’naviyatimiz tanazzulidan shundoqqina xabar berib turadi.

Asarning yana bir muhim va dolzarb qismlaridan biri bu- Farzand tarbiyasi bo’limidir. Nazarimda, bu asarning eng achchiq,kinoyali va keskir fikrli qismidir. Fitrat fikricha, odam mol, eshakni ham boqib, tarbiyalaydi, o’z farzandi- bani odamni ham. Aytganlarimga mone’lik qilmay turingkim, shu mol va eshakka bolalaridan ko’ra ko’proq e’tibor qaratadi, parvarishlaydi. O’ylab ko’ring, bolangiz yilida kamida 3 yoki 4 marotaba biror kasallik bilan og’riydi, molingiz bo’lsa... Chunki uning yillik foydasini, mehnatingiz mahsulini ko’rishingiz, kirim- chiqimini aniqlashingiz lozim, ammo nasib qilsinkim, farzandlar 10-20 yilda bo’y cho’zib sekin-asta kamolga yetadi. "Odamning kamoli faqat sog’liq va kuchdan iborat bo’lmay, balki jismonan, aqlan va axloqan yuksalishdan iborat. Odamning jismi, aqli va axloqi turli kasallik va nuqsonlardan uzoq bo’lishi lozim".[4] Bu borada oila boshqaruvchilarining tarbiyasi juda muhimdir. Yana aytiladiki, e’tibortalab tarbiya jarayonini 3 qismga bo’lish mumkin: tarbiyaning birinchi qismi tug’ilishdan to yetti yoshgacha ota-ona zimmasiga tushadi. Sakkiz yoshdan yigirma yoshgacha maktab va madrasa zimmasiga, keyin umrining oxirigacha odamning o’z boshiga tushadi.

Yaxshi tarbiya qilingan bolalar nafaqat oila, yurt tayanchi, qolaversa "in"ida ko’rgan muhit sabab dunyoni o’ziga bo’ysundirishi mumkin. Jahon tarbiya tajribasiga qaraydigan bo’lsak, Yaponiya katta mahorat maktabiga ega. Farzand tug’ilganidan boshlab, 3 yoshga to’lguncha faqat ota- ona nazoratida bo’lishi lozim- bu qat’iy talab! To’g’ri, bobo-buvisi, qarindosh-urug’lari bilan muloqot juda yaxshi yo’lga qo’yiladi, ammo bolalar bu davr ichida bog’chaga yoki tarbiyachiga topshirilmay, "amae" jarayonida bo’ladi. [5vAsarning yana bir dolzarb, bugungacha ahamiyatli boblaridan biri "Qizlar ham ilm olishlari

kerakmi?” mavzusiga bag’ishlangan qismidir. Garchi oiladagi juda ko’p mas’uliyatlar erkak bo’ynida bo’lsa ham, ammo ayol oilaning yuzidir, deydi Fitrat. Shu sababdan dinda belgilangan shariat ahkomlaridan chetlashmagan holda xotunlarning ilm olishi muhimdir, zero farzandlaringiz onalarining ixtiyorida ko’p vaqt bo’lib, asosan, ularning tarbiyasini oladi. Yuqori matlabga erishish uchun xotinlarimiz va qizlarimiz - millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilim larini kamolga yetkazishlari zarur. Aks holda, xotinlarimiz erkaklardan ham qo’rqoqroq, zaifroq va g’ayratsiz bo’lganlaridan bolalarimiz ham ularga o’xshab ketadilar. Quyidagi oyati karimada ham shu ma’noga ishora qiladi: «Pokiza yerdan toza va foydali o’simlik oson o’sadi va pokiza bo’lmagan yerdan xor-xasdan boshqa narsa chiqmaydi»

XXI asrning ayni taraqqiylashgan zamonida ham jadid ma’rifatparvari Abdurauf Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asari hamon dolzarbligicha qolmoqda. Jamiyatning asosi bo’lgan oila, uning inson hayotidagi o’rni ,oila boshlig’i va a’zolarining vazifalari hamda oilaviy tarbiya muammolarini o’zida akslantirgan mazkur risolani har bir oila qurish arafisidagi o’g’il-qizlar o’qishi lozim, deb bilaman .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq. 1992. 17- bet
2. Wwww. gazeta.uz sayti
3. Stat.uz sayti
4. Abdurauf Fitrat “Oila yoki oilani boshqarish tartiblari” 2013.43-bet
5.] <https://uz.wikipedia.org> internet sayti